

TIL O'QITISHDA INNOVATSION METODLARNING SAMARADORLIGI

Axmadjonov Nurbek Zokirjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, nemis va fransuz tillari kafedrası dotsenti

Muxammadsobirova Madinaxon

Farg'ona davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20342760>

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada ingliz va nemis tillarini o'rganish jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy va innovatsion metodlarning lingvovodidaktik samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida kommunikativ yondashuv (Communicative Language Teaching), topshiriqqa asoslangan o'qitish (Task-Based Language Teaching), gamifikatsiya, raqamlı ta'lim texnologiyalari (Computer Assisted Language Learning) hamda sun'iy intellekt asosidagi individual o'qitish tizimlari chuqur o'rganilgan. Tadqiqot sifatli (qualitative) tahlil usulı asosida amalga oshirildi. Unda ilmiy manbalar, zamonaviy pedagogika daniyotlar hamda raqamli ta'lim platformalari tahlil qilindi. Shuningdek, ingliz va nemis tillaridan olingan real hayotiy misollaryordamida har birmetodning amaliy qo'llanilishi va samaradorligi solishtirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion metodlar o'quvchilarning til darajada oshiradi, o'rganish jarayonida nutqiy ularning motivatsiyasini faolligini sezilarli kuchaytiradi hamda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi.

Kalit so'zlar: innovatsion ta'lim metodlari, lingvovodidaktika, ingliz tili, nemis tili, kommunikativ yondashuv, topshiriqqa asoslangan o'qitish

KIRISH Bugungi globallashuv har bir shaxsning ta'limi, kasbiy rivojlanishi va xalqaro aloqalardagi ishtiroki uchun muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz va nemis tillari dunyo miqyosida eng ko'p o'rganiladigan va eng keng qo'llaniladigan tillar qatoriga kiradi. Ingliz tilı xalqaro muloqot tili sifatida deyarli barcha sohalarida — ta'lim, biznes, ilm-fan, texnologiya va internet muhitida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Nemis tili esa Yevropa Ittifoqida, xususan Germaniya, Avstriya va Shveysariya kabi davlatlarda ilm-fan, muhandislik, iqtisodiyot sohalarida muhim o'rin egallaydi. Tibbiyot va shu sababli, ushbu tillarni o'rganish nafaqat lingvistik bilim olish, balki global jamiyatga integratsiyalashish, xalqaro mehnat bozoridaraqobatbardosh bo'lish va turli madaniyatlarni chuqurroq tushunishimkonini ham beradi. Til bilish insonning dunyoqarashini kengaytiradi, uning tafakkurini rivojlantiradi hamda turli ijtimoiy vakasbiy vaziyatlarda erkin muloqot qilish qobiliyatini shakllantiradi. Avvalgi an'anaviy ta'lim tizimlarida chet tillarini o'qitish asosan grammatik qoidalarniyodlash, tarjima qilish va yozma mashqlar bajarishga asoslangan edi. Bu usulo'quvchilarga nazariy bilim berishda samarali bo'lsa-da, ularning amaliy nutq ko'nikmalarini yetarli darajada rivojlantira olmagan. Natijada ko'plab o'quvchilargrammatikani bilsalarham, real hayotiy vaziyatlarda erkin gapirishda qiynalganlar.

Masalan: Inglizcha: I go to school every day Nemischa: Ich gehe jeden Tag zur Schule Ushbu jummalarni o'quvchilar tarjima qila olgan bo'lsalar- da, ularni tabiiy muloqotda qo'llashda muammolarga duch kelishgan. Bu esa an'anaviy yondashuvning cheklanganligini ko'rsatadi. Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida esa asosiy e'tibor kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan.

Ya'ni tilni faqat o'rganish emas, balki uni real hayotiy vaziyatlarda samarali qo'llay olish asosiy maqsadga aylangan. Shu bilan birga, zamonaviy metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ijodiy yondashuvni kuchaytirish va dars jarayonini interaktiv qilishga xizmat qiladi. Bugungikunda ta'lim jarayoniga innovatsion metodlar — kommunikativ yondashuv

(CLT), topshiriqqa asoslangan o'qitish (TBLT), gamifikatsiya, raqamli texnologiyalar (CALL) vasun'iy intellekt asosidagi tizimlar faoljoriy etilmoqda. Bu metodlar o'quvchilarning darsgabo'lgan qiziqishini oshirib, til o'rganishni yanada samarali va qiziqarli jarayonga aylantirmoqda. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi ingliz va nemis tillarini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion metodlarni tahlil qilish, ularning samaradorligini aniqlash hamda an'anaviy usullar bilan taqqoslashdan iboratdir.

METODOLOGIYA Ushbu ilmiy tadqiqot ingliz va nemis tillarini o'rganishda qo'llaniladigan innovatsion metodlarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, u sifatli (qualitative) tadqiqot yondashuvlarida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida lingvodidaktika, pedagogika va zamonaviy raqamli ta'lim texnologiyalariga oid ilmiy manbalar chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — zamonaviy o'qitish metodlarining o'quvchilarning til kompetensiyalariga (tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish) ta'sirini aniqlash hamda an'anaviy metodlar bilan qiyosiy tahlil qilishdan iboratdir.

Tadqiqotda quyidagi yondashuvlardan foydalanildi: Sifatli tahlil (qualitative analysis) — nazariy manbalarni o'rganish va tahlil qilish. Qiyosiy tahlil (comparative analysis) — ingliz va nemis tillari o'rtasidagi metodlarni solishtirish. Lingvodidaktik tahlil — til o'qitish usullarining samaradorligini misollar asosida baholash. Kontekstual yondashuv — real hayotiy tahlil qilish. 2.2. Ma'lumot manbalari. Tadqiqotda quyidagi manbalardan foydalanildi: ilmiy monografiyalar, vamaqolalar, pedagogik va lingvistik darsliklar, CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) hujjatlar, zamonaviy onlayn ta'lim platformalari (Duolingo, Quizlet, BBC Learning English, Deutsche Welle), sun'iy intellekt asosidagi til o'rgatish tizimlari.

Tahlil qilingan metodlar. Tadqiqot doirasida quyidagi innovatsion metodlar o'rganildi: Kommunikativ yondashuv (CLT), Topshiriqqa asoslangan o'qitish (TBLT), Gamifikatsiya (gamification approach), Raqamli o'qitish texnologiyalari (CALL), Sun'iy intellekt asosidagi individual o'qitish tizimlari. Har bir metod alohida lingvistik va pedagogik mezonlar asosida baholandi.

Amaliy tahlil usuli. Tadqiqotda ingliz va nemis tillaridan olingan real kommunikativ vaziyatlar (dialoglar, mashqlar, topshiriqlar) tahlil qilindi. Har bir metodning: nutqiy faollikka ta'sir, grammatikani o'zlashtirish darajasida bo'lgan rivojlantirishdagi rol, motivatsiyaga ta'sir alohida ko'rib chiqildi.

Qiyosiy yondashuv. Ingliz va nemis tillari misolida metodlarning qo'llanilishi solishtirildi. Masalan: ingliz tilida kommunikativ mashqlar ko'proq dialoglarga asoslangan bo'lsa, nemis tilida grammatik tuzilmalarga urg'u kuchliroq ekanligi kuzatildi.

Tadqiqot cheklovlari. Tadqiqot quyidagi cheklovlarga ega: faqat sifatli tahlil asosida olib borildi, amaliy eksperiment (tajriba sinovlari) keng miqdordagi o'tkazilmadi, ayrim raqamli platformalar cheklangan miqdorda tahlil qilindi. Natijalar. Indiv. va bir qator muhim natijalar aniqlandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy yondashuvlar an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan til o'rganish jarayonini sezilarli darajada samarali va interaktiv qiladi.

Nutqiy faollikning oshishi. Kommunikativ yondashuv (CLT) va topshiriqqa asoslangan o'qitish (TBLT) natijasida o'quvchilarning og'zaki nutq faolligi sezilarli darajada oshdi. O'quvchilar oddiy yodlashdanki, real dialoglarda ishtirok etishga ko'proq tayyor bo'la boshladilar. Masalan: Ingliz tilida ish intervyusi yoki kundalik ko'nikmalar rivojlandi. Nemis tilida dialoglar (Bewerbungsgespräch, suhbatlarda erkin javob berish, oddiy savol-javob va vaziyatli Alltagssituationen) yaxshilandi. Buholat tilni amaliy qo'llash darajasining oshganini ko'rsatadi.

Motivatsiyaning kuchayishi Gamifikatsiya elementlari (ball tizimi, reyting, mukofot, qiziqishini oshirdi. “streak” tizimi) o‘quvchilarning darsga bo‘lgan O‘quvchilar darsni majburiyat sifatida emas, balki qiziqarli jarayon sifatida qabul qila boshladilar. Natijada: darsda ishtirok etish faolligi oshdimustaqil o‘qishga qiziqish kuchaydira qabatva o‘zini rivojlantirish istagi paydo bo‘ldi

So‘z boyligining kengayishi Raqamli platformalar (Quizlet, Duolingo, BBC Learning English, Deutsche Welle) va multimedia materiallar yordamida o‘quvchilarning leksik boyligi sezilarli darajada oshdi. O‘quvchilar: yangi so‘zlarni tezroq yodlash niso‘z birikmalarini (collocations) to‘g‘ri ishlatishni kontekst orqali so‘z ma‘nosini tushunishni o‘rgandilar.

Grammatikani amaliy qo‘llash An‘anaviy yondashuvda grammatik qoidalar yodlanar edi, ammo innovatsion metodlar dagrammatika muloqot ichida o‘rgatildi. Bu esa o‘quvchilarning grammatik bilimlarni real nutqda qo‘llash ko‘nikmasini oshirdi. Masalan: Ingliz tilidagi zamonlarni (tenses) dialoglarda to‘g‘ri ishlatish Nemis tilida gap tuzilishi (Satzstruktur) ni amaliy mashqlarda qo‘llash

Tinglab tushunish va texnologik ko‘nikmalar Raqamli texnologiyalar va audio-videomateriallar o‘quvchilarning listening (tinglab tushunish) ko‘nikmalarini yaxshiladi. Ular turli aksent va tezlikdagi nutqni tushunishga o‘rgandilar. Shuningdek: onlayn platformalardan foydalanish ko‘nikmasi oshdimustaqil o‘qish va o‘zini baholash rivojlandi 3.6. Sun‘iy intellekt asosidagi natijalar AI asosidagi tizimlar o‘quvchilarning individual xatolarini aniqlab, ularga mos mashqlar taqdim etdi. Bu esa: xatolarni tezroq tuzatish individual yondashuv o‘quv tezligiga moslashish imkonini berdi.

MUHOKAMA. Ushbu tadqiqot natijalari ingliz va nemis tillarini o‘qitishda innovatsion metodlarning an‘anaviy yondashuvlarga nisbatan sezilarli ustunlikka ega ekanligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar asosida shuni aytish mumkinki, zamonaviy ta‘lim texnologiyalari til o‘rganish jarayonini nafaqat samarali, balki qiziqarli va interaktiv jarayonga aylantiradi. Eng muhim jihatlardan biri — bu kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishidir. An‘anaviy ta‘limda o‘quvchilarga ko‘proq qoidalarni yodlash va tarjima qilish bilan shug‘ullangan bo‘lsa, innovatsion yondashuvlarda ular real muloqot vaziyatlariga jalb qilindi. Bu esa ularning erkin fikr bildirish, tezkor javob berish va tilni tabiiy qo‘llash qobiliyatini rivojlantirdi. Shuningdek, gamifikatsiya va raqamli platformalarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning motivatsiyasiga kuchli ta‘sir ko‘rsatdi.

O‘yin elementlari, ball tizimi va reytinglar o‘quvchilarga qabat ruhini uyg‘otib, ularni doimiy ravishda o‘z ustida ishlashga undadi. Natijada o‘quv jarayoni majburiy emas, balki qiziqarli faoliyat sifatida qabul qilinib boshlandi. Raqamli texnologiyalar (CALL) va sun‘iy intellekt tizimlari esa individual yondashuv imkonini berdi. Har bir o‘quvchining bilim darajasi va xatolari inobatga olinib, mos mashqlar berildi. Bu esa o‘qitish jarayonini yanada samarali va moslashuvchan qildi. Biroq, aniqlandi: barcha yo‘qligi internet tadqiqot davomida o‘quvchilarda bir ayrim muammolar ham xil texnik imkoniyatlarning va raqamli resurslarga teng kirish imkoniyati cheklanganligi ayrim o‘qituvchilarning moslashishda qiyinchiliklari an‘anaviy yangi texnologiyalarga metodlardan to‘liq voz kechishning hali ham qiyinligi. Shu bilan birga, shuni ta‘kidlash kerakki, innovatsion va an‘anaviy metodlarni uyg‘unlashtirish eng samarali natijani an‘anaviy beradi. Chunki yondashuv, grammatik bilimlarni mustahkamlashda amaliy nutqni rivojlantirishda esa zamonaviy metodlar muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa

Ushbu ilmiy tadqiqot ingliz va nemis tillarini o‘qitishda innovatsion metodlarning samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, olingan natijalar asosida bir qator muhim xulosalarga kelindi. Avvalo, shuni ta‘kidlash kerakki, zamonaviy ta‘lim jarayonida

kommunikativyondashuv, topshiriqqa asoslangan o‘qitish (TBLT), gamifikatsiya, raqamli texnologiyalar (CALL) hamda sun‘iy intellekt asosidagi tizimlar o‘quvchilarning til o‘rganish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balkiamaliy kommunikativ ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Tadqiqot natijalarigako‘ra, innovatsion metodlar: o‘quvchilarning nutqiy faolliginioshiraditilni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradiso‘zboyligini kengaytiradigrammatik bilimlarni aylantiradi o‘quvchilarning motivatsiyasi amaliy va ko‘nikmaga qiziqishini kuchaytiradi Shuningdek, gamifikatsiya va raqamli platformalar o‘quvjarayonini qiziqarli va interaktivqilish orqali o‘quvchilarning darsgabo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi. Sun‘iy intellekt asosidagi tizimlar esa individual yondashuvni ta‘minlab, harbiro‘quvchining o‘z tezligida va darajasiga mos ravishda o‘qishigaimkon yaratadi. Shu bilan birga, tadqiqot shuni ham ko‘rsatdiki, an‘anaviy va innovatsion metodlarnibirgalikda qo‘llash eng samaralinatijani beradi. An‘anaviy metodlar grammatik bilimlarni mustahkamlashda muhim bo‘lsa, innovatsion metodlar amaliy nutq va kommunikativkompetensiyani rivojlantirishdaustunlikka ega. Umumiy xulosaXulosa qilib aytganda, ingliz va nemistillarini o‘qitishda innovatsion metodlardanfoydalanish zamonaviyta‘lim sifatini oshiradi, o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lganqiziqishinikuchaytiradi va ularni real hayotiy muloqotga tayyorlaydi. Shu sababli, kelgusidata‘lim tizimida ushbu metodlarni yanada keng joriy etishmaqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2014.
2. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. Pearson Education Limited, 2015. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Longman, 2007.
3. Larsen-Freeman D., Anderson M. Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford University Press, 2011. Scrivener J. Learning Teaching. Macmillan Education, 2012.
4. Dörnyei Z. Motivational Strategies in the Language Classroom. Cambridge University Press, 2001.
5. Ellis R. The Study of Second Language Acquisition. Oxford University Press, 2008.
6. Lightbown P.M., Spada N. How Languages are Learned. Oxford University Press, 2013. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press, 2013.
7. Yule G. The Study of Language. Cambridge University Press, 2017.
8. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press, 2010.
9. Willis J. A Framework for Task-Based Learning. Longman, 1996.
10. Skehan P. A Cognitive Approach to Language Learning. Oxford University Press, 1998.
11. Krashen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press, 1982.
12. Swain M. Communicative Competence. Oxford University Press, 1985.
13. Halliday M.A.K. An Introduction to Functional Grammar. Routledge, 2014. Hymes D.